

GAPDA URG'U VA SO'Z TARTIBINING GRAMMATIK AHAMIYATI

Raxmonberdiyeva Yulduz Rashid qizi

O'zbekiston -Finlandiya pedagogika

instituti tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15779302>

Annotatsiya. Mazkur maqolada gapda urg'u va so'z tartibining grammatik ahamiyati tahlil qilinadi. Til tizimida so'zlarning tartiblanishi va ularning qanday urg'u bilan aytilishi gap mazmunining tushunarli, lo'nda va aniq yetkazilishida muhim omil sanaladi. O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin bo'lsa-da, lekin mantiqiy urg'u va kontekstga ko'ra bu tartibning o'zgarishi gapning grammatik va semantik mazmunini o'zgartirishi mumkin. Maqolada urg'uning gapdagi vazifalari, so'z tartibining sintaktik va kommunikativ funksiyalari, shuningdek, so'z tartibining pragmatik jihatdan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, boshqa tillardagi (rus va ingliz tili) urg'u va so'z tartibi bilan solishtirma tahlillar orqali o'zbek tilining o'ziga xosliklari ochib beriladi. Gapda urg'u va so'z tartibining o'zaro aloqasi tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola tilshunoslar, o'qituvchilar, tarjimonlar va til o'rganuvchilari uchun foydali nazariy hamda amaliy material bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: urg'u, so'z tarkibi, gap tuzilishi, kommunikativ funksiyalar, sintaksis, pragmatika, semantika, tilshunoslik, o'zbek tili, mantiqiy urg'u.

KIRISH.

Til — bu nafaqat fikrni ifoda etish vositasi, balki ijtimoiy aloqa vositasi sifatida insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Gap esa til tizimining asosiy birliklaridan biri hisoblanadi. Gapning mazmunan to'liq va tushunarli bo'lishi uchun undagi so'zlar o'z o'rnida joylashishi va muayyan urg'u bilan aytilishi zarur. Tilshunoslikda bu holat gapda urg'u va so'z tartibi deb ataladi. O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin bo'lsa-da, ma'lumotni qanday tartibda va qanday urg'u bilan yetkazilishining grammatik ahamiyati mavjud.

ASOSIY QISM.

1. Urg'uning gapdagi vazifalari.

Gapda bir so'zning boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishiga gap urg'usi deyiladi.

Gap urg'usini olgan so'z, ko'pincha, kesimning oldida joylashadi.

Masalan; Men kecha Toshkentdan keldim. Men Toshkentdan kecha keldim.

Urg'u — bu so'z yoki gapdagi qandaydir elementni alohida ta'kidlash vositasidir. U uch asosiy turda uchraydi: fonetik urg'u (ovozning balandligi), mantiqiy urg'u (axborotning muhimligini ta'kidlash) va grammatik urg'u (so'z turkumlari orqali). Mantiqiy urg'u, ayniqsa, gap mazmunini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun:

- Men kitob o'qidim — bu yerda urg'u “men” so'zida bo'lsa, gap kim o'qiganini ta'kidlaydi.

- Men kitob o'qidim — urg'u “kitob”da bo'lsa, nima o'qilgani muhim.

- Men kitob o'qidim — bu holatda urg'u “o'qidim”ga tushib, harakat amalga oshirilganini bildiradi.

Urg'u gapda semantik markerni aniqlab beradi. Bu esa nutqning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

2. So'z tartibining grammatik va kommunikativ funksiyasi.

O‘zbek tilida asosiy so‘z tartibi SOV (Subyekt-Obyekt-Fe‘l) shaklida bo‘ladi. Biroq bu tartib turli stilistik, mantiqiy yoki pragmatik sabablarga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Masalan:

1. Men maktabga bordim. (Oddiy tartib)
2. Maktabga men bordim. (Urg‘u “men”da — boshqa birov emas, aynan men bordim)
3. Bordim men maktabga. (Poetik, emotsional maqsadlar uchun)

So‘z tartibi grammatik nuqtai nazardan gapning turini, intonatsiyasini, va mantiqiy urg‘uni belgilaydi. Notog‘ri so‘z tartibi esa gapning grammatik asosini buzishi mumkin.

3. Urg‘u va so‘z tartibining o‘zaro bog‘liqligi.

Urg‘u va so‘z tartibi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birining mazmunini to‘ldiradi. Odatda, urg‘u gap oxiridagi yoki urg‘uli pozitsiyadagi so‘zga tushadi. Shuning uchun, so‘zni ohiriga chiqarish orqali unga urg‘u berish mumkin. Biroq har doim ham ohirgi so‘z urg‘uga ega bo‘lavermaydi — bu holat kontekst va intonatsiyaga bog‘liq.

Misol:

- U yaxshi o‘qituvchi.

4. Boshqa tillar bilan solishtirma tahlil.

Rus tilida urg‘u fonetik jihatdan kuchli ifodalanadi va gapda ma‘no aynan urg‘u orqali belgilanadi. Ingliz tilida esa so‘z tartibi qat‘iy bo‘lib, grammatik vazifalarni belgilaydi. O‘zbek tilida esa so‘z tartibi erkin, lekin semantik urg‘u va kontekst orqali tushuniladi. Bu esa til o‘rganuvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Xulosa.

Urg‘u va so‘z tartibi gapning grammatik tuzilishi va semantik mazmunini belgilovchi asosiy vositalardan hisoblanadi. O‘zbek tilida bu ikki element erkinlikka ega bo‘lsa-da, mantiqiy va kommunikativ jihatdan qat‘iy qonuniyatlarga asoslanadi. Nutq samaradorligini oshirish, fikrni aniq yetkazish, muloqotda noaniqlikning oldini olish uchun urg‘u va so‘z tartibiga e‘tiborli bo‘lish zarur. Bu mavzuning yanada chuqurroq o‘rganilishi tilshunoslik fanining rivojlanishiga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov. M. “O‘zbek tili grammatikasi”. Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Qodirov. A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent: Fan, 2009.
3. Saipov. M. “Tilshunoslik asoslari”. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
4. Crystal. D. “The Cambridge Encyclopedia of the English Language.” Cambridge University Press, 2010.
5. Xojiboyeva. Z. “Urg‘u va intonatsiya: o‘zbek va rus tillarida qiyosiy tahlil.” Filologiya jurnali, 2021.
6. Ona tili. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING 5-SINFI UCHUN DARSLIK. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT – 2020. N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, SH. SATTOROV, SH. TOSHMIRZAYEVA, D. MANNOPOVA